

JADIDLARNING TA'LIM ISLOHOTLARI: YANGI USUL MAKTEBLARINING  
JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Ashirov Ilxomjon

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti III bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakatining ta'lim sohasidagi islohotlari hamda yangi usul maktablarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Jadidlarning an'anaviy maktab va madrasalardagi ta'lim tizimini zamonaviy bilimlar asosida yangilashga qaratilgan faoliyati, o'quv dasturlariga dunyoviy fanlarning kiritilishi hamda savodxonlik darajasining oshishiga qo'shgan hissasi yoritib beriladi. Shuningdek, yangi usul maktablarining milliy ongni shakllantirishdagi ahamiyati tarixiy manbalar asosida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik harakati, ta'lim islohotlari, yangi usul maktablari, ma'rifatparvarlik, savodxonlik, milliy ong, dunyoviy fanlar, jamiyat taraqqiyoti, Turkiston.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируются образовательные реформы джадидского движения, сформировавшегося в Туркестане в конце XIX — начале XX веков, а также роль школ нового метода в развитии общества. Освещается деятельность джадидов, направленная на модернизацию традиционной системы обучения в школах и медресе на основе современных знаний, внедрение светских дисциплин в учебные программы и их вклад в повышение уровня грамотности населения. Кроме того, на основе исторических источников раскрывается значение школ нового метода в формировании национального самосознания.

**Ключевые слова:** Джадидское движение, образовательные реформы, школы нового метода, просветительство, грамотность, национальное самосознание, светские науки, общественное развитие, Туркестан.

**Abstract:** This article provides a scholarly analysis of the educational reforms of the Jadid movement that emerged in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries, as well as the role of new-method schools in societal development. It highlights the Jadids' efforts to modernize the traditional system of education in schools and madrasas through the introduction of modern knowledge, the inclusion of secular subjects in curricula, and their contribution to improving literacy rates. Furthermore, the significance of new-method schools in shaping national consciousness is examined on the basis of historical sources.

**Keywords:** Jadid movement, educational reforms, new-method schools, enlightenment, literacy, national consciousness, secular sciences, societal development, Turkestan.

Tarixda "jadid – arabcha yangi" deb atalib yangilik va islohotlarga intiluvchi, taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi ziyolilar jadidlar deb ataldi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati milliy o'zlikni anglash va ma'rifatparvarlik

yo'nalishida muhim rol o'ynagan Madaniy-ma'rifiy islohotlarning ibtidosida, albatta, maktab-maorif ishlari turadi. Shu kezlari Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab "usuli jadid" maktablari ochildi. Uning tashkilotchilari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon kabi o'nlab atoqli zotlar bo'ldi<sup>6</sup>. Bu ma'rifatparvarlarimiz ta'lim tarbiya sohasida o'z fikrlarini bildirib, juda katta islohotlar amalga oshirdi. Xususan, Abdulla Avloniyning tarbiya "biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"<sup>7</sup>, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim degan fikrlari tarbiyaga berilgan eng chiroyli ta'rif desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jadidchilar juda ko'p islohotlar amalga oshirdi. Xususan eng muhim islohotlardan biri bu so'zsiz maktab ta'limi sohasida amalga oshirdi. Ular Turkistonda juda ko'plab yangi jadid maktablari ya'ni "Yangi usul" maktablarini tashkil etdi. Maktab haqida Abdulla Avloniyning "Hayot yo'lida birinchi masala maktab masalasidir" degan fikrlari maktabdagi ta'limning naqadar ahamiyatli ekanligini bildirardi. Yangi usul maktablarining kelib chiqishi Qrimlik jadidchilik harakati asoschisi Ismoil G'aspirali nomi bilan bog'liq. U dastlab Boqchasaroyda 1884-yili "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush usuli") maktabini tashkil etadi. Turkiston o'lkasida nima uchun yangi usul maktablariga ehtiyoj sezila boshladi? Ko'p asrlik maktab va madrasalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko'nikma bermas edi. An'anaviy ta'lim tizimi faqat diniy bilimlarga asoslangan bo'lib, madrasalarda haftiyak (Qur'oni Karimning 7/1), Qur'oni Karim, risoli aziza, fiqh kabi diniy adabiyotlar o'qitilardi. Ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy fikricha "chin musulmon bo'lish uchun diniy bilimlar bilan birga, dunyoviy vilimlarni, ayniqsa matematika, fizika, kimyo, tarix va tibbiyot fanlarini bilish zarur deb hisoblagan. Jadidlar jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlikni inson azob uqubatlarning asl sabablari deya talqin etganlar. Shuning uchun yangi usulda ta'lim beradigan maktablar ochila boshladi. Bu maktablarning ochilish tarixiga turli xil kitoblarda turlicha tavsif berilgan. Mening fikrimcha, jadid maktablarining ochilib rivojlanishi quyidagicha edi: - 1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochilgan. Turkiston hududida keyingi Yangi usul maktablari 1898-yil Qo'qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Andijonda Shamsiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o'zbeklar bu davrda bunday maktablarni "no'g'oy maktab" deb atagan). 1903-yilda Toshkentda Mannor qori yangi usul maktabini ochadi. Turkistonda yangi usul maktablari kechroq XIX-asrning 80-yillari oxiri 90-yillarning boshlarida tashkil etilganligi Dilnoza Kamolovanning doktorlik dissertatsiyasida qayd etilgan. Unda ta'kidlanishicha, "Abdulahadxon hukmronligi davrida Buxoro shahrida jadid maktablari vujudga kela boshlaydi. Dastlab Badriddin qozikalonning ruxsati bilan 1897-yilda Mulla Jo'raboy va 1907-yilda tatar ziyolisi Nizomiddin Sobitiy yangi usul maktablarini ochadilar. 1908-yilning oktyabrda esa Buxoro taraqqiyparvarlari Sadriddin Ayniy va Abduvohid Munzim tomonidan xuddi shunday maktablar tashkil etiladi"<sup>8</sup> Jadidlarning yangi usul maktablari eski maktabalardan farqi juda katta edi. Dastlab

<sup>6</sup> Xursanov J. Jadidlarning Turkiston o'lkasi ta'lim sohasida amalga oshirgan islohotlari. - Toshkent: Tafakkur, 2020. - B. 18-22.

<sup>7</sup> A. Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. - B. 14-15.

<sup>8</sup> Kamolova D. Buxoroda jadidchilik harakati (doktorlik dissertatsiyasi). - Toshkent, 2018. - B. 64-68.

maktablar 1- 4 sinfdan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1913-14 o'quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi.

Yangi usul maktablari uchun maxsus binolar qurilmagan. Ular xususiy bo'lib, ko'p hollarda maktab uchun muallimning o'z uyidan yoki biron bo'sh turar joy binolaridan hamda ba'zi shaxslarning tashqi hovlilaridan foydalanilgan. Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyat va ongning o'sishiga yordam berishidan qo'rqib, o'zlari uchun xatarli deb hisobladilar. Shu bahona bilan 1911- yilda mahalliy millat maktablarida (rustuzem maktablaridan tashqari) o'quvchilar qaysi millatdan bo'lsa, muallimlar ham shu millatdan bo'lishlari lozim degan qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida tatar muallimlari ishdan bo'shatilib, bir necha o'nlab Yangi usul maktablari yopib qo'yildi. 1913-yilga kelib esa barcha jadid maktablari yopib qo'yildi. Yangi usul maktablarining biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona o'quv rejasi, dasturi bo'lmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan o'quv rejasi va darsliklar asosida olib borilgan. Maktablar uchun Abdulla Avloniy "birinchi muallim", "turkiy guliston yoxud axloq", Maxmudxo'ja Behbudiy «Qisqacha umumiy geografiya», "Bolalar maktubi", "Islomning qisqacha tarixi", "Amaliyoti islom", "Aholi geografiyasiga kirish", "Rossiyaning qisqacha geografiyasi" Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi Soniy", "Tajvid" (Qur'onni qiroat bilan uqish usuliga oid qo'llanma) "yer yuzi" kabi darsliklar yaratdi. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham berilgan. Xususan, jadidlar an'anaviy Alisher Navoiy va Boborahim Mashrab merosidan foydalangan holda, demokratik davlat qurish yo'lidan borganlar.

Yangi usul maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o'tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur'on suralarini yod aytishni, o'zbek tilidan o'qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o'rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablari zamonaviy o'zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo'lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat alifbe va o'qish kitoblarigina emas, o'zbek tilining qonun qoidalari yoritilgan "Turkcha qoida" va "Imlo" kabi dastlabki o'quv qo'llanmalari yaratilgan. Ta'limning bunday tashkil etilishi jadidlarimizning islohot rejaları asosida tuzib chiqilgan. Bu islohotlar natijasida o'z tarixini yaxshi biladigan, xat savodli o'sha davr zamon talabiga javob beradigan yoshlar chiqa boshladi. Jadidlarning yangi usul maktablari garchand juda katta qarshiliklarga uchragan bo'lsada samarasini bermayn qolmadi. Bu o'quv maskanlarida ko'plab bolalar xat savodini chiqardi. Misol uchun 1903-yilda birgina Toshkentda 20 ta (shundan 2 tasi o'rta) jadid maktablari bo'lgan. 1911-yil jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo'lib, ularda 4106 ta bola o'qigan. Shu yili Toshkentning o'zida 24 ta maktab bo'lib 1740 ta bola o'qigan. 1918-yilgacha turkiston hududida 104 Yangi usul maktablari bo'lib, ularda 10343 bola o'qigan. Bularning hammasiga jadid bobolarimizning maktab ta'limi sohasidagi islohotlari natijasida erishildi. Yangi usul maktablari 1918-1919 o'quv yilidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan. Yangi usul maktablari orqali mahalliy aholining o'z tarixi, madaniyati tiklana boshladi. Jadidlarimiz maktab ochish bilan cheklanib qolmadi, endi ular iqtidorli bolalarni yevropaning rivojlangan davlatlariga o'qishga yuborish uchun ham kurashdilar. Bu yo'lda 1910-yilda Munnavarqori Abdurashidxonov, Hoji Rafiy, Usmonxo'ja, Mirza Abduvohid kabi ziyolilar Buxoroda

“Tarbiyai atfol” (bolalar tarbiyasi) jamiyatini tuzdilar. Bu jamiyat 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda 30-nafar yoshlarni Turkiyaga o‘qishga yubordilar. Keyingi yillardan talabalarni Germaniya davlatiga yuborish boshlandi. <sup>9</sup>Chunki o’sha paytda G‘arbiy Yevropaning eng rivojlangan davlati Germaniya edi. Nemis texnika va texnologiyasini o‘rganish, tibbiyot, sohasini va siyosiy bilimlarni o‘rganish asosiy maqsad edi.

Keyinchalik shunday talabalar orasidan Fitrat, Olim Yunusov, Xolid Said, Eson afandi Musayev kabi yozuvchi va olimlar, Mustafo Cho‘qayev, Ubaydulla Xo‘jayev kabi huquqshunoslar yetishib chiqdi. Ular yurtimizning yangi maorifi, madaniyati, ilm-fanini rivojlantirish va milliy istiqloлга erishishi yo‘lida faoliyat olib bordilar. Xususan, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev “Jamiyati xayriya” tomonidan chet elga o‘qishga yuborildi va birinchi oliy ma‘lumotli o‘zbek advokati bo‘ldi. Sherali Turdiyevning kitobida yozilishicha, Germaniyaga yuborilgan talabalarning hammasi ham qaytib kelolmagan Tohir Chig‘atoy, Ibrohim Yorqin, Abduvahob Is‘hoq, Saida Sherahmedova, Ahmadjon Ibrohimov kabi 70 nafar talabalar turli sabablarga ko‘ra qaytolmaganlar. Chet elda o‘qigan talabalarning ko‘pi juda ilmiy kishilar bo‘lib, ko‘pchiligi keyinchalik qatag‘onga mahkum etilgan. Qaytib kelolmagani ham chet el universitetlarida o‘qib, o’sha davlat rivojiga hissa qo’sha oladigan munosib kadrlar bo‘lib yetishgan.

Jadidlarning ma‘rifat yo‘lidagi jasorati va fidoiyligi zamonaviy adabiyotda ham o‘z aksini topgan. Xususan, Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanida jadid ziyolilarining ilm-ma‘rifat uchun kurashi, ularning ruhiy kechinmalari va tarixiy fojeasi badiiy talqin etilib, jadidchilik harakatining ma‘naviy-ruhiy mohiyati ochib beriladi.<sup>10</sup>

#### Xulosa

Jadid ma‘rifatparvarlar tomonidan amalga oshirilgan ta‘lim islohotlari Turkiston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida tub burilish yasagan muhim tarixiy jarayon sifatida namoyon bo‘ldi.

Ular tashkil etgan yangi usul maktablari orqali nafaqat savodxonlik darajasi oshirildi, balki dunyoviy fanlar, tabiiy-ilmiy bilimlar va zamonaviy pedagogik metodlar ta‘lim tizimiga joriy etildi. Jadidlar ta‘limni jamiyatni isloh qilishning asosiy vositasi deb bilib, xalqni jaholat, qoloqlik va mutaassiblikdan chiqarishga intildilar.

Shu bilan birga, jadid ma‘rifatparvarlar matbuot, teatr, adabiyot va madaniy-ma‘rifiy faoliyat orqali ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, ta‘limning ijtimoiy ahamiyatini keng targ‘ib qildilar.

Ularning sa‘y-harakatlari natijasida ta‘lim jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylana boshladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlarining asosiy g‘oyalari, sifatli ta‘lim, ochiqlik, innovatsion yondashuv va barkamol avlod tarbiyasi bevosita jadidlar merosi bilan uyg‘unlashadi.

Jadid ma‘rifatparvarlarining ta‘lim sohasidagi islohotlari nafaqat o‘z davrida xalqni ilm-ma‘rifat sari yetaklagan, balki kelajak avlodlar uchun zamonaviy ta‘lim tizimini shakllantirishga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilgan tarixiy tajriba sifatida bugun ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

<sup>9</sup> Sh. Turdiyev Ular Germaniyada o‘qigan edilar. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 23–30.

<sup>10</sup> J. Jovliyev Qo‘rqma. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 45–52.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Turdiyev – “Ular Germaniyada o’qigan edilar” Toshkent: Akademnashr, 2011. – 160 b.
2. A. Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” Toshkent: O’qituvchi, 1992. – 160 b.
3. J. Jovliyev “Qo’rqma” Toshkent: Akademnashr, 2020. – 240 b.
4. J.Xursanov “Jadidlarning turkiston o’lkasi ta’lim sohasida amalga oshirgan islohotlari.” Ilmiy maqola. – Toshkent, 2020. – B. 10–58.
5. D.Kamolova “Buxoroda jadidchilik harakati” (doktorlik dissertatsiyasi). – Toshkent, 2018.